

ZAMONAVIY JAMIYATDA TIL MUAMMOSI

Djavotova Ohista Djamol qizi
Sharof rashidov nomidagi SamDU
1-bosqich tayanch doktoranti
Tel: +998 93 347 33 53

Annotatsiya: Falsafiy tadqiqot obyekti sifatida tilning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati, ilmiy-nazariy, mantiqiy-falsafiy mohiyati ochib beriladi. Ayniqsa, tilning konstruktiv imkoniyatlari falsafiy tadqiqotlar doirasida tahlil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, kamolotga erishish, yuksak salohiyatli yoshlarni shakllantirish, mantiqiy tafakkur doirasini kengaytirish, intellektual imkoniyatlarni oshirishda tilning ta’siri juda muhim sanaladi.

Kalit so‘zlar: til, mantiq, tilshunoslik, muloqot, tafakkur, fenomenologiya.

Til va tafakkur inson hayotining, munosib turmush kechirishining, shuningdek, taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Tafakkurning oydinlashuvi, amaliy hayotga tadbiqui til vositasi orqali namoyon bo‘ladi. Tilning qadriyat sifatidagi mohiyati har bir davrda muhim hisoblangan. Vaholanki, **til tafakkur mahsuli sifatida jamiyat taraqqiyoti, konstruktiv rivojining asosiy omili sanaladi. Til taraqqiyoti millat, jamiyat, davlat taraqqiyotidir. Har bir xalqning tarixi, madaniyati, qadriyatlari, urf-odati, ilm-fani til va tafakkur darajasining yuksakligi bilan belgilanadi. Shu boisdan ham** tilning globallasuv jarayonini, umumjahon masalalarni hal etishda bajaradigan asosiy vazifasi – bu uning konseptual va metodologik asoslarini yaratish, xususan, muammoli vaziyatni, uning paydo bo‘lish sabablarini tushuntirish, muamoni ilmiy-nazariy, falsafiy asosda tadqiq etish zaruriy ahamiyat kasb etmoqda. “Til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o‘rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o‘rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi” [4]. Mazkur ta’rifda tilning tilshunoslik doirasidagi muloqot vositasi sifatidagi mohiyati bayon etiladi. Ammo, til juda keng ko‘lamdagi, serqirra hamda murakkab falsafiy tushuncha hisoblanadi. Tilning falsafiy mohiyati, uning nazariy tafakkur tarzi bilan aloqadorligi, shuningdek uning pofunksionallik xususiyatlari asosan falsafiy va mantiqiy adabiyotlarda yoritiladi. Shu jumladan faylasuf, mantiqshunos olim D.Fayzixo‘jayevaning mulohazalariga binoan “Til insonning inson bilan, insonning mashina (kompyuter) bilan o‘zaro aloqasini ta’minlovchi axborot belgilari tizimi. Til tafakkur bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fikrimizning bevosita mavjud bo‘lishini ta’minlaydi va kishilar o‘rtasida aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi. Tilni o‘rganish mantiq fanining muhim vazifalaridan biridir” [2; 199]. Demak til muammosi faqatgina tilshunoslik obyekti sifatida emas, balki falsafiy fanlarning, jumladan, mantiqning ham tadqiqot obyekti hisoblanadi. Falsafiy tadqiqot obyekti sifatida tilning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati, ilmiy-nazariy, mantiqiy-falsafiy mohiyati ochib beriladi. Ayniqsa, tilning

konstruktiv imkoniyatlari falsafiy tadqiqotlar doirasida tahlil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, kamolotga erishish, yuksak salohiyatli yoshlarni shakllantirish, mantiqiy tafakkur doirasini kengaytirish, intellektual imkoniyatlarni oshirishda tilning ta'siri juda muhim sanaladi. Bundan kelib chiqqan holda zamonaviy, globallashtirilgan bugungi davrda tilning konstruktiv imkoniyatlarini ochib berish, uning falsafiy, dialektik, sinergetik xususiyatlarini aniqlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Til falsafa doirasida azaldan o'rganib kelingan. Qadimgi yunon faylasufi Arastuning mantiq faniga asos solishi, tafakkur yuritish qonuniyatlarini ochib berishi, til va tafakkur aloqadorligi borasidagi tadqiqotlari fikrimizning yorqin dalilidir. "XX asrda til falsafasining shakllanishi tilning tabiatiga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, turli qarashlar ular orasida raqobatni kuchaytiradi. Biroq an'anaviy ontologiya va bilish nazariyasida empirik va ratsionallik paradigmalardan farqli o'laroq, tilning yangi modellari umumiy tezisni birlashtirdi, bu tezisga ko'ra, ongning borliqqa munosabati til orqalidir. Til ong va borliqning barcha strukturalari ichiga kirib ketadi" [1; 165]. Demak, til ong va tafakkurni mahsuli sifatida muloqotni shakllantiradi, borliqqa, tashqi dunyoga nisbatan samarali munosabatni shakllantiradi. Shu bilan birga, "Tashqi dunyoning mavjudligini tildan ajrata bilish kerak, shuningdek, tilni ongdan ham ajratish lozim. Biroq inson tomonidan tashqi dunyoni anglab etish til bilan shu darajada mustahkam bog'langanki, ayrim faylasuflarning ong va borliqni tildan ajratib olishga intilishlari – bu g'ayri tabiiy akt va buni amalga oshirish mohiyatan mumkin emas. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, olamda hodisalar, xossalar va munosabatlarning mavjudligi hech kimni shubha solmaydi. Biroq, ular til tomonidan yasaladi va tilning konstruksiyalari bo'ladi. Til olamni anglangan holda konstruksiya qilish vositasi bo'lib qoladi [3; 274]. Bundan shunday mulohaza kelib chiqadilki, til har qanday hodisa va jarayonga jon kiritadigan, uni ta'riflab beradigan vosita sanaladi.

Bugungi kunga kelib tilning falsafiy tahlil obyekti sifatidagi mohiyatini fenomenologiya, analitika, germenetika va postmodernizm kabi yo'nalishlar doirasida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Tilning falsafiy tahlili bizningcha quyidagi vazifalar orqali amalga oshirilishi mumkin:

jamiyat taraqqiyotida tilning konstruktiv ta'sirini shakllantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish;

til falsafasini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;

til va tafakkur uyg'unligi hamda imkoniyatlari yuzasidan malakalarini rivojlantirish;

milliy rivojlanishga, ma'naviy, ilmiy, iqtisodiy farovonlikka xizmat qiluvchi til madaniyatini shakllantiruvchi usul va vositalarni ishlab chiqish; zamonaviy jamiyatda tilning konstruktiv imkoniyatlari va rivojlanishga ta'siri ochib berish;

tilning falsafiy fenomen sifatidagi funksiyalari ochib berish;

til falsafasining regulyativ imkoniyatlari asoslash.

Xulosa qilib mulohaza yuritadigan bo'lsak, til jamiyatni yuksaltiradigan, inson tafakkuri imkoniyatlarini ochib beradigan, nazariy, ilmiy, mantiqiy, falsafiy doirada tadqiq etilishi zaruriy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa hisobladi. Vaholanki, tilning falsafiy tahlili uning yangi qirralarini, funksional jihatlarini, konstruktiv tomonlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gusserl E. Sobranie sochineniy. Tom 1. –M.: 1994.
2. Файзихўжаева Д. Мантиқ: изоҳли лўғат. - Т.: Tamaddun, 2015.
3. Xudayberganov R. Tilning ilmiy-falsafiy xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. № 3(1/2).
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Til>.